

Xasanov Farruxjon Sherali o'g'li

<https://orcid.org/0009-0007-2390-7341>

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,

Samarqand, O'zbekiston.

SURUNKALI ISHEMIK YURAK KASALLIGIDA O'RTA YOSHDAGI BEMORLAR MIOKARDIDA KUZATILADIGAN GISTOMORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Annotasiya. Tadqiqotda o'rta yoshlilar surunkali yurak ishemik kasalligida miokard strukturasining morfologik xususiyatlari o'rganish maqsadida 40 nafar 45-59 yoshli vafot etgan shaxslar yuragi mikroskopik tekshiruvdan o'tkazilgan. Miokardda morfologik jihatdan ishemik tipdagi o'zgarishlar namoyon bo'lishi, kardiomyositlarning gipertrofiyasi va oraliq biriktiruvchi to'qimaning perivaskulyar sohalarga o'sib, o'choqli sklerotik o'zgarishlarning miqdoriy jihatdan ko'p bo'lishi tanatogenez ko'rinishining saqlanishi namoyon etilgan. Yurakning surunkali ishemik kasalligining davolash muolajalarinin olib borilishida mazkur patomorfologik o'zgarishlar inobatga olinishi lozim.

Kalit so'zlar: Surunkali yurak ishemik kasalligi, miokard, o'rta yosh, karonorakardioskleroz.

Хасанов Фаррухжон Шерали угли

UZ Самаркандский государственный

медицинский университет, UZ

Самарканд, Узбекистан.

ГИСТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МИОКАРДА У ПАЦИЕНТОВ СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ СЕРДЦА

Аннотация. В исследовании с целью изучения морфологических особенностей структуры миокарда у лиц среднего возраста с хронической ишемической болезнью сердца проведено микроскопическое исследование сердец 40 умерших в возрасте 45–59 лет. Морфологически в миокарде наблюдались изменения по ишемическому типу, гипертрофия кардиомиоцитов и разрастание промежуточной соединительной ткани в периваскулярные зоны, количественное увеличение очаговых склеротических изменений при сохранении характера танатогенеза. Данные патоморфологические изменения следует учитывать при проведении лечебных мероприятий при хронической ишемической болезни сердца.

Ключевые слова: Хроническая ишемическая болезнь сердца, миокард, средний возраст, ишемическая болезнь сердца.

Khasanov Farrukhjon Sherali ugli

Samarkand State Medical University, UZ

Samarkand, Uzbekistan.

HISTOMORPHOLOGICAL CHANGES IN THE MYOCARDIUM OF MIDDLE AGE PATIENTS WITH CHRONIC ISCHEMIC HEART DISEASE

Annotation. In the study, in order to study the morphological features of the myocardial structure in middle-aged people with chronic ischemic heart disease, microscopic examination of the hearts of 40 deceased people aged 45-59 years was performed. Morphologically, ischemic-type changes were observed in the myocardium, hypertrophy of cardiomyocytes and growth of intermediate connective tissue into perivascular areas, and a quantitative increase in focal sclerotic changes, with preservation of the thanatogenesis pattern. These pathomorphological changes should be taken into account when conducting treatment procedures for chronic ischemic heart disease.

Keywords: Chronic ischemic heart disease, myocardium, middle age, coronary artery disease.


Muammoning dolzarbligi. Bugungi kunga qadar butun dunyo bo'ylab yurakning surunkali ishemik kasalligi tibbiyotning oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yurakning qon tomirlari kasalliklarini oldini olish va davolashda zamonaviy yutuqlarga qaramasdan yurakning surunkali ishemik kasalligi hali ham ilg'or o'rinlardan birini egallab turibdi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu kasallikdan o'lim sodir bo'lishi barcha o'lim holatlarini 3/1 qismini tashkil etadi. Har yili 1 milliondan ortiq odam ushbu kasallikdan ko'z yumadi [2,4, ,8]. JSST ma'lumotlariga ko'ra, 2005 yilda 17,1 million kishi yurak-qon tomir kasalliklaridan va ularning 7,2 millioni koronar arteriya kasalligidan vafot etgan [1,7]. Jumladan, o'lim darajasining yuqori bo'lishi nafaqat kam rivojlangan mamlakatlarda, balki rivojlangan mamlakatlarda ham kuzatilmoqda. Masalan, 2008 yilda Buyuk Britaniyada koronar arteriya kasalligi bilan og'rikan bemorlarning yillik o'limi 94 000 kishini tashkil etdi. 2009 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qo'shma Shtatlarda 785 000 kishi miokard infarktiga duchor bo'lgan, har 25 soniyada mamlakatda koronar kasalliklar holati ro'y beradi va zamonaviy tibbiyotning barcha yutuqlariga qaramay, har daqiqada 1 kishi koronar arteriya kasalligidan vafot etadi. Xudd shunday tendensiyalar Rossiyada ham kuzatilmoqda: Rossiya Federatsiyasi Federal Davlat statistika xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2009 yilda yurak-qon tomir tizimi kasalliklaridan 523 532 ayol va 623 129 erkak vafot etgan [3]. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yurakning surunkali ishemik kasalligi o'ta dolzarb muommalardan biri hisoblanib, buning ustida ko'plab ilmiy izlanishlar zarur hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: O'rta yoshlilar surunkali yurak ishemik kasalligida miokardda bo'ladigan o'zgarishlarning morfologik o'zgarishlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning material va usullari: O'rta yoshlilar surunkali yurak ishemik kasalligida miokard strukturasining morfologik xususiyatlari o'rganish maqsadida 40 nafar 45-59 yoshli vafot etgan shaxslar yuragi mikroskopik tekshiruvdan o'tkazilgan bo'lib, shulardan 32 nafari (82 %) erkak, 8 nafari (18 %) ayolladir. Ushbu yoshdagilar miokarddagi patomorfologik o'zgarishlarni chuqurlashtirib o'rganish maqsadidida quyidagi kichik guruhlariga bo'lindi: 1-guruh: 45-50 yoshlilar; 2-guruh: 51-55 yoshlilarva 3- guruh: 55 yoshdan kattalar. Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda miokard tuzilmalarining morfologik xususiyatlari o'rganib chiqildi. Maxsus gistologik tekshiruv uchun material chap qorinchaning oldingi devori va qorinchalararo to'siq qismidan olindi. Olingan to'qima bo'lakchalari 10% neytral formalinda fiksasiya qilindi, spirtli batareya orqali


o'tkazildi, parafinli bloklar tayyorlandi. Tayyorlangan gistologik qirqmalar gematoksilin va eozin, Van-Gizon bo'yicha bo'yaldi.

Natija va xulosalari: Tadqiqotimizga olingan birinchi kichik guruhdagi 45-50 yoshli surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etganlar 11 nafar bo'lib shulardan 3 nafari ayollardir. Marhumlar yuragining o'rtacha og'irligi $344,3 \pm 4,1$, o'lchamlari $11 \times 8,9 \times 5,2$ sm, chap qorincha qalinligi $- 1,1 \pm 0,13$, o'ng $- 0,34 \pm 0,01$ sm. Miokard konsistensiyasi o'limdan keyingi davrga qarab turli elastiklik va shaffoflik kasb etadi. Ushbu yoshdagilar yuragining mioakrd qavatidan tayyorlangan mikropreparatlarda mushak talalari oraliqlarida perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi ya'ni mayda o'choqli konorokardioskleroz aniqlanadi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori qalishlashishi hisobiga ularning bo'shliqlari 50 % dan ko'proq torayishi kuzatiladi. Sklerotik o'choqlar atrofidagi kardiomiositlarning gipertrofiyasi qayd etiladi (1-rasm).




Rasm-1. 45-50 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi aterosklerotik plakchalar va koronorakardioskleroz o'choqlari. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10

Tadqiqotga olingan ikkinchi guruhdagi 51-55 yoshli surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etganlar 10 nafar bo'lib shulardan 2 nafari ayollardir. Marhumlar yuragining o'rtacha og'irligi $342,3 \pm 3,8$, o'lchamlari $10,8 \times 8,9 \times 5,1$ sm, chap qorincha qalinligi $- 1,08 \pm 0,11$, o'ng $- 0,33 \pm 0,02$ sm. Ushbu yoshdagilar yuragining mioakrd qavatidan mushak talalari tolalangan, orliq to'qimasiningning shishinishi, ma'lum sohalarida kardiomiositlar fragmentlarga ajaralganligi kuzatiladi. Ko'ruv maydonida perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi ya'ni konorokardioskleroz o'choqlari aniqlanadi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori qalinlashgan va ularning bo'shliqlari 60 % dan ko'proq torayishi kuzatiladi (2-rasm). Ularning atrofidagi kardiomiositlarning gipertrofiyasi qayd etiladi.



Rasm-2. 51-55 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi aterosklerotik o'zgarishlar tufayli

Mushak tolalari oraliqlarida har xil xajmdagi sklerotik jarayonlar aniqlanadi (3-rasm).



Rasm-3. 51-55 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi aterosklerotik o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan koronorakardioskleroz o'choqlari. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10

55 yoshda katta yoshli surunkali yurak ishemik kasalligidan vafot etganlar 10 nafar bo'lib shulardan 2 nafari ayollardir. Marhumlar yuragining o'rtacha og'irligi $343,3 \pm 1,8$, o'lchamlari $10,5 \times 8,8 \times 5,0$ sm, chap qorincha qalinligi - $1,05 \pm 0,12$, o'ng - $0,31 \pm 0,02$ sm. Ushbu yoshdagilar yuragining mioakrd qavatidan mushak talalari tolalangan, oraliq to'qimasining kuchsiz shishinishi, ma'lum sohalarida kardiomiositlar gipertrofiyasi kuzatiladi. Ko'ruv maydonida perivaskulyar sohalariga oraliq biriktiruvchi to'qimaning o'sganligi ya'ni koronokardioskleroz o'choqlari aniqlanadi. Mayda intramiokardial arteriya qon tomirlarining devori keskin qalinlashgan va ularning bo'shliqlari 70 % dan ko'proq torayishi kuzatiladi (4-rasm). Ularning atrofidagi kardiomiositlarning gipertrofiyasi qayd etiladi.



Rasm-4. 51-55 yoshli bemorlar intramiokardial qon tomirlaridagi aterosklerotik o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan koronorakardioskleroz. Gematoksilin-eozinda bo'yalgan. Ob.40, ok.10

Anatomik jihatdan, chap asosiy arteriyaning 50% yoki undan ko'p stenoz yoki boshqa koronar arteriyalarning har qandayida 70% yoki undan ortiq stenoz og'ir deb hisoblanadi [5,8]. Bizning tekshiruvlarimizda 55 yoshdan kattalar intramiokardial arteriyalarning 70 % dan ko'p toroyishi aniqlandi. Shu munosabat bilan koronorakardioskleroz o'choqlari sezilarli maydonlarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari mushaklar oraliqlarida fibroz to'qimaning (kardioskleroz) shakllanishining ortib borishi kuzatiladi.

Xulosa. Shunday qilib, surunkali ishemik kasalligiga chalingan bemorlar yuragining miokarda qavatidagi morfologik o'zgarishlar bemorlarning yoshiga bevosita bog'liq bo'lib, yosh oshgan sari sklerotik jarayonlar egallagan sohalarning ortishi va intrakardial arteriyalar devorining torayishi kuchliroq namoyon bo'ladi. O'rta yoshlilarda koronarokardioskleroz o'choqlaridan tashqari, kardioskleroz o'choqlarining shakllanishi ko'proq namoyon bo'ladi. Shuning uchun yurakning surunkali ishemik kasalligida davolash muolajalarini to'g'ri tandlab olishda mazkur morfologik o'zgarishlari alohida j'tiborga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеева О.П., Долбин И.В., Пикулев Д.В. Сочетанное течение ишемической болезни сердца и гастроэзофагеальной рефлюксной болезни // НМЖ. – 2006. – № 7. – с 7-12
2. Карпов Ю.А., Сорокин Е.В. Стабильная ишемическая болезнь сердца: стратегия и тактика лечения. Москва: Медицинское информационное агентство, 2012. 271 с.
3. Сайфиддинова М.А., Рахимова М.Э., Разиков А.А. Особенности течения ишемической болезни сердца в сочетании с патологией гастродуоденальной зоны // Биология и интегративная медицина. 2016. №6. С. 98-117.
4. Соловьев Г. М., Попов Л. В., Портненко В. В., Силаев А. А. Малоинвазивные операции на коронарных артериях у больных ИБС без применения искусственного кровообращения. Всероссийская конференция «Минимально-инвазивная хирургия сердца и сосудов», 1-я: Тезисы. М 1998.

5. Горбатов А.В., Ильин А.С., Карабешкин Д.И., Прохорихин А.А., Зубарев Д.Д., Аверкин И.И., Цибизова В.И., Чернявский М.А. Механическая поддержка кровообращения и современные возможности лечения сердечной недостаточности в терминальной стадии. Грудная и сердечно-сосудистая хирургия. 2022. Т. 64. № 3. С. 241
6. Levine GN, Bates ER, Blankenship JC, et al. 2011 ACCF/AHA/SCAI Guideline for Percutaneous Coronary Intervention: a report of the American College of Cardiology Foundation/American Heart Association Task Force on Practice Guidelines and the Society for Cardiovascular Angiography and Interventions. **Circulation** 2011;124(23):e 574–e651
7. Priori SG, Blomström-Lundqvist C, Mazzanti A, et al. 2015 ESC Guidelines for the management of patients with ventricular arrhythmias and the prevention of sudden cardiac death: the Task Force for the Management of Patients with Ventricular Arrhythmias and the Prevention of Sudden Cardiac Death of the Europe. *Eur Heart J* 2015; 36: 2793-867.
8. Herman AR, Cheung C, Gerull B, et al. Outcome of Apparently Unexplained Cardiac Arrest: Results From Investigation and Follow-Up of the Prospective Cardiac Arrest Survivors With Preserved Ejection Fraction Registry. *Circ Arrhythm Electrophysiol.* 2016 Jan; 9(1): e003619. doi: 10.1161/CIRCEP.115.003619.

Muallif bilan bog‘lanish uchun e-mail	Author's contact email	Email для связи с автором
xasanovfarrux4@gmail.com		